



FORSCHA VA TURKCHA KOMPLIMENTLARNING TARJIMASIDA LINGVOMADANIY VA PRAGMATIK OMILLAR

Qurbonov Bobur Chorshanbiyevich

SamDChTI, Yaqin sharq tillari kafedrası mudiri.

Mehmed Cevik

Hoji Bayram Veli universiteti professori, Turkiya.

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors va turk tillaridagi komplimentlarning tarjimada berilishi, ularning lingvomadaniy, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Komplimentlar oddiy maqtov shakli bilangina cheklanmay, suhbatdoshga hurmat bildirish, minnatdorchilik izhor etish, muloqotdagi masofani yumshatish, xijolatni kamaytirish, ijtimoiy odobni saqlash va nutqiy aloqani davom ettirish kabi vazifalarni bajaradi. Fors tilida taorof an'anasi bilan bog'liq komplimentlar, turk tilida esa duo, samimiyat va ijtimoiy yaqinlikni ifodalovchi birliklar tarjimon uchun alohida e'tibor talab qiladi. Maqolada forscha va turkcha komplimentlarning so'zma-so'z tarjimasi ko'p hollarda pragmatik ma'noni to'liq yetkaza olmasligi ko'rsatilib, ekvivalent tanlash, funksional tarjima, izohli tarjima, madaniy moslashtirish va pragmatik kompensatsiya kabi usullar asosida tahlil olib boriladi.

Kalit so'zlar: kompliment, tarjima, pragmatika, lingvomadaniyat, taorof, turkcha nutq odobi, ekvivalent, izohli tarjima.

Аннотация. В статье рассматриваются лингвокультурные и прагматические особенности передачи персидских и турецких комплиментов в переводе. Compliments анализируются не только как форма похвалы, но и как средство выражения уважения, благодарности, тактичности, речевого этикета и социальной близости. Особое внимание уделяется персидской традиции таоруфа и турецким формулам вежливости, связанным с благопожеланием и оценочной речью. Показано, что буквальный перевод подобных единиц часто не передает их коммуникативной функции; поэтому переводчику необходимо использовать функциональный эквивалент, описательный перевод, культурную адаптацию и прагматическую компенсацию.

Ключевые слова: комплимент, перевод, прагматика, лингвокультура, таоруф, турецкий речевого этикет, эквивалент, описательный перевод.

Abstract. The article examines the translation of Persian and Turkish compliments from linguocultural and pragmatic perspectives. Compliments are viewed not only as forms of praise, but also as speech acts expressing respect, gratitude, politeness, tact, social closeness and communicative solidarity. Particular attention is paid to Persian taarof-related formulas and Turkish politeness expressions based on blessing, appreciation and interpersonal warmth. The article argues that literal translation often fails to convey the pragmatic force of such units. Therefore, translators should employ functional equivalents, descriptive translation, cultural adaptation and pragmatic compensation.

Keywords: compliment, translation, pragmatics, linguoculture, taarof, Turkish speech etiquette, functional equivalent, descriptive translation.

Kirish. Tarjimashunoslik zamonaviy filologiya fanining eng muhim va murakkab yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tarjima jarayoni faqat bir tildagi so'zlarni ikkinchi tildagi so'zlar bilan almashtirishdan iborat emas. Har qanday tarjima asl matnda mujassam bo'lgan ma'no, uslub,



hissiy ohang, kommunikativ maqsad va madaniy kodni boshqa til vositalari yordamida qayta yaratishni talab qiladi. Ayniqsa, nutqiy etiketga oid birliklar, xususan komplimentlar tarjimasida bu talab yanada kuchayadi. Chunki komplimentlar bevosita lisoniy birlik bo‘lish bilan birga, muayyan xalqning odobi, dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va muloqot madaniyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Kompliment insonning tashqi qiyofasi, xulqi, bilimi, mahorati, mehmondo‘stligi, nutqi, kiyimi, mehnati yoki ijtimoiy mavqeiga nisbatan bildiriladigan ijobiy baho shaklidir. Biroq fors va turk tillarida uchraydigan komplimentlar ko‘pincha oddiy ijobiy baholashdan kengroq vazifa bajaradi. Ular minnatdorchilik, tavoze, hurmat, uzr, rozilik, xayrixohlik, duo yoki suhbatni yumshatish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilishda ularning lug‘aviy ma‘nosini emas, balki nutq vaziyatidagi funksiyasini aniqlash birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Fors tilidagi komplimentlar ko‘pincha taorof an‘anasi bilan bog‘liq. Taorof Eron muloqot madaniyatida hurmat, tavoze, iltifot, taklif, rad etish yoki qabul qilishning murakkab odobiy shakllarini o‘z ichiga oladi. Turk tilidagi komplimentlar esa ko‘p hollarda samimiyat, yaqinlik, duo va ijtimoiy birdamlikni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, forscha “چاکرتم” (chākaretam) bir qarashda “xizmatkoringman” degan ma‘noni bildirsa-da, real muloqotda “sizga hurmatim baland”, “rahmat”, “marhamat” kabi mazmunlarni anglatishi mumkin. Turkcha “Eline saġlık” iborasi esa so‘zma-so‘z “qo‘lingga sog‘lik” tarzida tarjima qilinadi, lekin nutq jarayonida “mehnatingiz uchun rahmat”, “juda yaxshi tayyorlabsiz” kabi pragmatik ma‘nolarni beradi.

Tarjimada komplimentlarning o‘rni va murakkabligi. Tarjimon faoliyatida murakkablik tug‘diradigan omillar ko‘p. Ular orasida tillarning grammatik tuzilishi, so‘z tartibi, ko‘p ma‘nolilik, frazeologik birliklar, realiyalar, dialektal unsurlar va madaniy tafvutlar alohida o‘rin tutadi. Komplimentlar aynan mana shu omillarning bir nechtasini o‘zida jamlagani uchun tarjima jarayonida murakkab birliklar qatoriga kiradi. Birinchidan, komplimentlarda ko‘pincha ko‘chma ma‘no faol bo‘ladi. Ikkinchidan, ular muayyan ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq holda anglashiladi. Uchinchidan, bir tilda odatiy va tabiiy eshitiladigan iltifot boshqa tilda ortiqcha, sun‘iy yoki hatto noqulay taassurot qoldirishi mumkin.

Masalan, forscha “شرمندگی باعث” (bā‘ese sharmandegi) iborasi so‘zma-so‘z “xijolat sababchisi” degan mazmunni beradi. Biroq bu birlik ko‘pincha minnatdorchilik yoki lutfga javob sifatida ishlatiladi. Uni o‘zbek tiliga “xijolat qildingiz”, “juda muloyimlik qildingiz”, “katta rahmat” kabi vaziyatga mos shakllar bilan berish mumkin. Turkcha “Allah razı olsun” iborasini esa faqat “Alloh rozi bo‘lsin” deb tarjima qilish ayrim holatlarda yetarli bo‘lsa-da, rasmiy yoki dunyoviy kontekstda “sizdan minnatdorman”, “katta rahmat” kabi funksional muqobil tanlanishi mumkin. Demak, kompliment tarjimasida tarjimon uch asosiy savolga javob topishi lozim: birinchidan, asl birlik lug‘aviy jihatdan nimani anglatadi; ikkinchidan, nutq vaziyatida qanday kommunikativ vazifani bajaradi; uchinchidan, qabul qiluvchi til va madaniyatda shu vazifani tabiiy ifodalaydigan qanday birlik mavjud?

Forscha komplimentlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Fors muloqot madaniyatida komplimentlar juda faol ishlatiladi. Ular suhbatdoshga hurmat ko‘rsatish, ijtimoiy masofani tartibga solish, minnatdorchilik bildirish, mehmonnavozlikni ifodalash va ijobiy munosabatni namoyon etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Fors tilida ayrim komplimentlar bevosita maqtov bo‘lsa, ayrimlari tavoze yoki o‘zini past tutish orqali suhbatdoshni ulug‘lashga asoslanadi. Bunday birliklarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ko‘pincha ma‘noni buzadi yoki kulgili taassurot uyg‘otadi.



Forscha komplimentlarda tana a'zolari, ayniqsa ko'z, nafas, qo'l, jon, bosh kabi so'zlar ko'p uchraydi. Biroq ular har doim ham o'zining bevosita anatomik ma'nosida kelmaydi. Masalan, "دمت گرم" (damet garm) iborasida "nafas" va "issiq" so'zlari ishlatilgan bo'lsa-da, iboraning ma'nosi "baraka toping", "zo'r qildingiz", "sizga gap yo'q" kabi ijobiy baholash va minnatdorchilikdir. "چشم" (cheshm) so'zi esa bevosita "ko'z" degan ma'noni bildiradi, ammo muloqotda "xo'p", "albatta", "bajonidil" kabi rozilik ifodasi vazifasini bajaradi.

Forscha birlik	So'zma-so'z ma'nosi	Pragmatik ma'nosi	O'zbekcha tarjima varianti
دمت گرم (damet garm)	Nafasing issiq	Minnatdorchilik, maqtov, ijobiy baho	Baraka toping; sizga gap yo'q; zo'r qildingiz
کردید محبت خیلی (keyli mohabbat kardid)	Ko'p muhabbat qildingiz	Lutf va xizmat uchun minnatdorchilik	Juda mehribonlik qildingiz; katta rahmat
شرمندهگی باعث (bā'ese sharmandegi)	Xijolat sababchisi	Ortiqcha lutfdan xijolat bo'lish, minnatdorlik	Xijolat qildingiz; juda lutf qildingiz
ندارد عیب (eyb nadārad)	Aybi yo'q	Rozilik, muammoni yumshatish	Mayli; hechqisi yo'q; muammo emas
این جانب (in jāneb)	Bu tomon	O'zini kamtarona atash	Kamina; men
چاکرتم (chākaretam)	Xizmatkoringman	Hurmat, samimiylilik, minnatdorchilik	Xizimatingizdaman; rahmat; marhamat
چشم به چشم راهم (cheshm be rāham)	Ko'zim yo'lda	Kutish, taklif, sog'inish	Yo'lingizga ko'z tikib kutaman; kelib turing
بیندی قشنگ چشمتان (cheshmetān qashang mibinad)	Ko'zingiz chiroyli ko'radi	Ishonch va ijobiy bahoni suhbatdoshga qaytarish	Siz yaxshi ko'rasiz; ishonchingiz uchun rahmat
چشم (cheshm)	Ko'z	Rozilik, itoat, tayyorlik	Xo'p; albatta; bajonidil
نداری؟ کاری (kāri nadāri?)	Biron ishingiz yo'qmi?	Suhbatni odob bilan yakunlash	Bizga xizmat bormi?; yana biror topshiriq bormi?

Jadvaldan ko'rinadiki, forscha komplimentlarning aksariyati bevosita lug'aviy mazmuni orqali emas, balki muloqotdagi vazifasi orqali tarjima qilinishi kerak. Masalan, "چاکرتم" iborasini "men sizning xizmatkoringizman" tarzida berish rasmiy yoki zamonaviy o'zbek matnida tabiiy chiqmaydi. Bunday holatda "xizimatingizdaman", "marhamat", "rahmat" yoki "sizni hurmat qilaman" kabi vaziyatga mos variantlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Turkcha komplimentlarning lingvomadaniy xususiyatlari. Turk tilidagi komplimentlar ham nutqiy etiketning muhim tarkibiy qismidir. Turk muloqot madaniyatida maqtov, duo, minnatdorchilik va samimiy murojaat ko'pincha bir-biri bilan uyg'unlashadi. Ayniqsa kundalik muloqotda "Eline saqlık", "Ağzına saqlık", "Gözün aydın", "Maşallah", "Allah razı olsun" kabi



iboralar juda faol qo'llanadi. Ularning ayrimlari o'zbek tiliga nisbatan yaqin ko'rinsa-da, har bir iboraning kontekstdagi vazifasini aniq belgilash zarur.

Turkcha komplimentlarda "qo'l", "og'iz", "ko'z", "yurak", "jon", "sog'lik" kabi so'zlar keng uchraydi. Bu holat turkiy xalqlar muloqot madaniyatida mehnatga, so'zga, ko'rish va quvonchga ijobiy baho berish an'anasi bilan bog'liq. Masalan, "Eline saqlık" ovqat pishirgan, biror ish bajargan yoki hunar ko'rsatgan kishiga nisbatan aytiladi. Uni so'zma-so'z "qo'lingga sog'lik" deb tarjima qilish mumkin, ammo matnning uslubiga qarab "qo'lingiz dard ko'rmasin", "mehnatigizga rahmat", "juda yaxshi tayyorlabsiz" kabi variantlar ko'proq tabiiy bo'ladi.

Turkcha birlik	So'zma-so'z ma'nosi	Pragmatik ma'nosi	O'zbekcha tarjima varianti
Eline saqlık	Qo'lingga sog'lik	Mehnat, ovqat yoki hunarga ijobiy baho	Qo'lingiz dard ko'rmasin; juda yaxshi qilibsiz
Ağzına saqlık	Og'zingga sog'lik	Yaxshi gap, to'g'ri fikr yoki chiroyli ijro uchun maqtov	Barakalla; juda to'g'ri aytdingiz; gap yo'q
Gözün aydın	Ko'zing yorug'	Xushxabar, uchrashuv yoki natija bilan tabriklash	Ko'zingiz yorug' bo'lsin; tabriklayman
Çok nazıksınız	Juda nazokatlisiz	Lutf, odob va muloyimlikni e'tirof etish	Juda lutfkorsiz; iltifotingiz uchun rahmat
Allah razı olsun	Alloh rozi bo'lsin	Minnatdorchilik, duo	Alloh rozi bo'lsin; katta rahmat
Maşallah	Alloh xohlagandek	Havas, maqtov, ko'z tegmasin degan tilak	Ko'z tegmasin; qoyil; barakalla
Afiyet olsun	Sog'lik bo'lsin	Ovqatlanish bilan bog'liq yaxshi tilak	Osh bo'lsin; yoqimli ishtaha
Harikasın	Ajoyibsan	Shaxsiy maqtov, rag'bat	Zo'rsiz; qoyil; ajoyib ish qildingiz
Çok yakışmış	Juda yarashibdi	Kiyim, ko'rinish yoki buyumga ijobiy baho	Juda yarashibdi; chiroyli ko'rinish
Kalbıne saqlık	Yuragingga sog'lik	Samimiylık, ezgulık yoki badiiy ijod uchun minnatdorlık	Yuragingizga rahmat; juda samimiy chiqibdi

Turkcha komplimentlarning tarjimasida yana bir muhim jihat shundaki, ular ko'pincha vaziyatga qarab turli uslubiy darajada beriladi. Masalan, "Harikasın" do'stona muloqotda "zo'rsan" deb tarjima qilinishi mumkin, lekin rasmiy matnda "siz juda yaxshi natija ko'rsatdingiz" shakli ma'qulroq bo'ladi. "Maşallah" esa o'zbek tilidagi "mashallah" shakli bilan qardosh madaniyatda tanish bo'lsa-da, hamma kontekstda aynan shu ko'rinishda qoldirish shart emas. Badiiy matnda u milliy koloritni saqlash uchun "mashallah" tarzida berilishi, izohli tarjimada esa "ko'z tegmasin" ma'nosi bilan ochilishi mumkin.



Forscha va turkcha komplimentlarning qiyosiy tahlili. Forscha va turkcha komplimentlar o'rtasida bir qator umumiyliklar mavjud. Har ikki tilda ham komplimentlar ijobiy baho, hurmat, minnatdorchilik va samimiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Har ikki madaniyatda ham tana a'zolari bilan bog'liq obrazlar ko'p uchraydi: fors tilida “چشم” (ko'z), “دم” (nafas), “جان” (jon), turk tilida “el” (qo'l), “ağız” (og'iz), “göz” (ko'z), “kalp” (yurak) kabi birliklar buning dalilidir. Biroq ularning qo'llanish doirasi va pragmatik kuchi bir xil emas.

Forscha komplimentlarda taorof unsuri kuchliroq seziladi. Suhbatdoshni ulug'lash, o'zini past tutish, lutfni rad etayotgandek ko'rinib, aslida muloqot odobini saqlash kabi holatlar ko'p uchraydi. Turkcha komplimentlarda esa samimiy duo, ochiq rag'bat, ijtimoiy yaqinlik va kundalik hayotdagi iliq munosabat kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun forscha komplimentlar tarjimasida yashirin pragmatik ma'noni ochish, turkcha komplimentlar tarjimasida esa samimiylik va tabiiylikni saqlash muhimdir.

Qiyosiy mezon	Forscha komplimentlar	Turkcha komplimentlar	Tarjimon uchun tavsifa
Madaniy asos	Taorof, tavoze, lutf, rasmiy-odobiy masofa	Duo, samimiyat, yaqinlik, kundalik etiket	Madaniy vazifani aniqlab tarjima qilish
Ko'p uchraydigan obrazlar	Ko'z, nafas, jon, xijolat, xizmat	Qo'l, og'iz, ko'z, yurak, sog'lik	Obrazni emas, vazifani tarjima qilish
Asosiy funksiyalar	Hurmat, minnatdorchilik, rozilik, odobiy rad yoki qabul	Maqto'v, duo, tabrik, rag'bat, minnatdorchilik	Kontekstga mos funksional muqobil tanlash
So'zma-so'z tarjima xavfi	Sun'iylik yoki noto'g'ri tushunilish ehtimoli yuqori	Ba'zi birliklar yaqin bo'lsa-da, uslubiy farq bo'lishi mumkin	Izohli yoki moslashtirilgan tarjimadan foydalanish

Komplimentlarni tarjima qilish strategiyalari. Forscha va turkcha komplimentlarni tarjima qilishda yagona universal usul mavjud emas. Har bir birlikning tarjimasida matn turi, muloqot vaziyati, adresat, uslubiy daraja va tarjima maqsadiga qarab belgilanadi. Shunga qaramay, amaliy tarjimada quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi.

Birinchi strategiya - funksional ekvivalent tanlash. Bu usulda tarjimon asl birlikning so'zma-so'z ma'nosini emas, balki uning vazifasini qabul qiluvchi til vositalari bilan beradi. Masalan, forscha “گرم دمت” iborasi “nafasing issiq” emas, “baraka toping”, “zo'r qildingiz” tarzida tarjima qilinadi. Turkcha “Ağzına sağlık” ham “og'zingga sog'lik”dan ko'ra “juda to'g'ri aytdingiz” yoki “barakalla” shaklida tabiiyroq eshitiladi.

Ikkinchi strategiya - izohli tarjima. Agar birlik qabul qiluvchi madaniyat uchun notanish bo'lsa yoki milliy koloritni saqlash zarur bo'lsa, tarjimon qisqa izohdan foydalanishi mumkin. Masalan, badiiy matnda “taorof” tushunchasini bir martalik izoh bilan berish keyingi komplimentlarni tushunishni osonlashtiradi. “Maşallah” iborasi ham ayrim kontekstlarda “mashallah, ya'ni ko'z tegmasin degan ma'noda aytiladigan maqto'v” tarzida izohlanishi mumkin.

Uchinchi strategiya - madaniy moslashtirish. Bunda tarjimon asl birlikni qabul qiluvchi til madaniyatida mavjud bo'lgan yaqin odobiy formula bilan almashtiradi. Masalan, forscha “کاری”



؟نداری” iborasining telefon suhbatini yakunlashdagi vazifasi o‘zbek tilidagi “bizga xizmat bormi?” yoki “yana biror topshiriq bormi?” birliklari orqali berilishi mumkin.

To‘rtinchi strategiya - pragmatik kompensatsiya. Ba‘zan bir komplimentdagi madaniy yoki hissiy ohangni aynan shu joyda berish imkonsiz bo‘ladi. Bunday holatda tarjimon matnning boshqa qismida hurmat, minnatdorlik yoki samimiylilikni kuchaytiruvchi vositalardan foydalanib, umumiy pragmatik ta‘sirni saqlab qolishi mumkin.

Beshinchi strategiya - transliteratsiya va izohni birlashtirish. Bu usul milliy kolorit muhim bo‘lgan badiiy, etnografik yoki ilmiy matnlarda qo‘llanadi. Masalan, “taorof”, “maʼallah”, “afiyet olsun” kabi birliklar transliteratsiya qilinib, birinchi qo‘llanishda izohlanishi mumkin. Keyingi o‘rinlarda esa ular matn ichida tabiiy qabul qilinadi.

Tarjima amaliyotida uchraydigan xatolar. Komplimentlar tarjimasida eng keng tarqalgan xato - so‘zma-so‘z tarjimaga ortiqcha tayanishdir. Masalan, “يېندى قشنگ چشمتان” iborasini “ko‘zingiz chiroyli ko‘radi” deb berish o‘zbek o‘quvchisi uchun noaniq bo‘lishi mumkin. Aslida bu ibora suhbatdoshning ijobiy fikrini kamtarona tarzda qabul qilish yoki uning qarashini qadrlash ma‘nosini beradi. Shuning uchun uni “siz yaxshi niyat bilan qarayapsiz”, “ishonchingiz uchun rahmat” kabi shakllarda berish maqsadga muvofiq.

Yana bir xato - barcha komplimentlarni bir xil “rahmat” yoki “barakalla” bilan tarjima qilishdir. Bunday yondashuv matndagi uslubiy rang-baranglikni kamaytiradi. Masalan, “Eline saqlk”, “Agzina saqlk” va “Allah razı olsun” birliklarining barchasini “rahmat” deb tarjima qilish mumkin, lekin ular orasidagi ma‘no nozikliklari yo‘qoladi. Birinchisi mehnat yoki qo‘l mehnatiga, ikkinchisi so‘z yoki ijroga, uchinchisi esa duo va minnatdorchilikka bog‘liqdir.

Uchinchi xato - rasmiy va norasmiy uslubni farqlamaslik. “Harikasn” do‘stlar o‘rtasida “zo‘rsan” deb berilishi mumkin, lekin rasmiy nutqda “ishingiz juda muvaffaqiyatli chiqibdi” shakli ma‘qulroq. Xuddi shuningdek, “چاکرتم” iborasi samimiy suhbatda “xizmatingizdaman” deb berilsa, rasmiy matnda “sizga hurmatim baland” kabi yumshoqroq variant tanlanadi.

Xulosa. Forscha va turkcha komplimentlar tarjimasida lingvistik, madaniy va pragmatik yondashuvlarni birgalikda talab qiladigan murakkab jarayondir. Bu birliklar ko‘pincha oddiy maqtov emas, balki hurmat, minnatdorchilik, samimiyat, duo, tavoze, rozilik yoki suhbatni odob bilan davom ettirish va yakunlash vositasi sifatida ishlatiladi. Shu bois ularni tarjima qilishda lug‘aviy ma‘noni mexanik ko‘chirish yetarli emas.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, forscha komplimentlarda taorof, xijolat, xizmat va kamtarlik unsurlari kuchli bo‘lsa, turkcha komplimentlarda duo, samimiylilik, rag‘bat va ijtimoiy yaqinlik ko‘proq namoyon bo‘ladi. Har ikki tilda ham tana a‘zolari bilan bog‘liq obrazlar faol ishlatiladi, biroq ularning tarjimadagi vazifasi kontekst orqali belgilanadi. Tarjimon komplimentning yuzaki shaklidan tashqari, uning nutq vaziyatidagi maqsadini ham aniqlashi zarur.

Komplimentlarni muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun funksional ekvivalent, izohli tarjima, madaniy moslashtirish, pragmatik kompensatsiya va transliteratsiya kabi strategiyalardan oqilona foydalanish lozim. Shuningdek, forscha va turkcha komplimentlarning maxsus ikki yoki ko‘p tilli lug‘atini yaratish, ularni kontekstual misollar bilan boyitish tarjimonlar, til o‘rganuvchilar va lingvomadaniyat tadqiqotchilari uchun muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мадаени А.А., Мостафави Г.Х. Речевой акт комплимента в русском и персидском языках // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2013. № 8. С. 177-182.
2. Rahimov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, 2016.



3. Holmes J. Compliments and compliment responses in New Zealand English // *Anthropological Linguistics*. 1988. Vol. 28.
4. Brown P., Levinson S.C. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
5. Pym A. *Exploring Translation Theories*. London and New York: Routledge, 2014.
6. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "On the translation of Persian complements." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.6 (2024): 266-269.
7. Аламов, Шавкатжон. "ФОРСЧА ИЛДИЗЛИ АРАБЧА СЎЗЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 6, 2022, pp. 472-476.
8. Alamov, Shavkatjon. "Arab tilidagi forscha iqtiboslar." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.3 (2022): 390-395.
9. Курбонов, Бобур. "'Mazholis un-nafois'" ("the meeting of the elected") and its translations in persian-tajik literature." *Вестник Таджикского национального университета. Серия филологических наук* 6 (2020): 236-239.
10. Муртазов, Валижон. "Лингвостилистический анализ текстов газет Узбекистана и Египта конца XIX–начала XX века." *Зарубежная лингвистика и лингводидактика* 2.5/S (2024): 465-471.
11. Qurbonov, Bobur. "O'ZBEK TILIDAGI FORSCHA O'ZLASHMALAR XUSUSIDA" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 5, no. 3, 2025, pp. 450-455.

